

Gulhayo Ortiqova Isroilovna
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

**DIKKENS IJODINING IJTIMOYIY-TARIXIY KONTEKSTI VA ROMANLARIDA
BRITANIYA MADANIY O‘ZIGA XOSLIGINING AKS ETISHI**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Charlz Dikkenz asarlaridagi ijtimoiy-tarixiy kontekst hamda jamiyatdagi turli qatlamlarning madaniy o‘ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

Annotation: This article highlights the socio-historical context of Charles Dickens' works and the cultural features of different strata of society.

Аннотация: В статье рассматривается социально-исторический контекст произведений Чарльза Диккенса и культурные особенности различных слоев общества.

Kalit so‘zlar: jamiyat, madaniyat, qatlam, satira, tarjima, tanqid, ijtimoiy, sanoat.

Dikpens o‘z davrining eng mashhur romannavislaridan biri edi va hozirda ham kitobxonlar tomonidan sevib o‘qiladigan ingliz mualliflaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ko‘pchilik buyuk insonlar yoshligidan og‘ir hayotni ko‘rib voyaga yetishadi, shu singari Dikpens ham 12 yoshida otasi qarzdorligi uchun qamalib ketgach, maktabni tashlab oyoq kiyimlar moylanadigan zavodda ishlashga majbur bo‘ladi. Oilasi ham otasining oldiga qamoqqa jo‘natilgach, Dikpens juda ko‘p qiyinchiliklarni boshdan kechiradi. Uning ko‘pgina kitoblaridagi qahramonlar hayoti o‘zining hayotida bo‘lgan voqealarga asoslangan. Masalan, “Kichik Dorrit” asaridagi Emi Dorrit hikoyasi Dikpensning otasini ko‘rgani qarzdorlar qamoqxonasiga borgandagi voqealardan olingan. Bir oz muddatdan so‘ng Dikpensning otasi buvisidan qolgan meros hisobiga qarzlaridan qutuladi va oila yana birgalikda erkinlikda yashay boshlashadi. Dikpens endi qiyinchiliklarim tugadi, deb umid qiladi, chunki u ishlaydigan zavoddagi og‘ir sharoitlar yosh bola uchun og‘irlik qilardi. Ammo uning onasi Dikpensni darhol zavoddan ketishini xohlamaydi va yana ishga yuboradi. Bu Dikpensga juda qattiq ta‘sir qiladi va shundan ayollarga nisbatan qalbida isyon uyg‘onadi. Dikpens yana ishini davom ettirishga majbur bo‘ladi va yoshligidagi mashaqqatlarga to‘la bu hayotini o‘zining “Devid Kopperfild” romanida qisman aks ettiradi. “Menga beriladigan hech qanday yordam, hech qanday madad, hech qanday rag‘bat va taskin yo‘q edi”, deb eslaydi Dikpens o‘sha kunlarni. [1]

Keyinchalik Dikpens Kamden shaharchasidagi akademiyaga o‘qishga yuboriladi, ammo u yerda ta‘lim tarbiyaning qoniqarsizligi tufayli 2 yil davomida, 15 yoshigacha o‘qiydi. U yerdagi ta‘lim tizimining achinarli ahvolini Dikpens “Devid Kopperfild”dagi Janob Kriklning maktabi timsolida tasvirlagan. Maktabdan ketgach Dikpens bir nechta huquq idoralarida xodim bo‘lib ishlagan va u yerdagi nohaqliklarni ham asarlarida aks ettirgan.

Dikpens o‘zi hayotlik davridayoq romanlari bilan butun dunyoga mashhur bo‘lgan. Dikpens o‘zining asarlaridagi yumori bilan ham mashhur. Mana shu yumor orqali u jamiyatdagi illatlarni fosh qilishga urinadi. Asarlarida kambag‘al ishchilarning og‘ir hayotlarini, qiyinchiliklarini tasvirlaydi. Hattoki, kitobxonlar tomonidan “Dikpensian” atamasi yaratilib bu kambag‘al, qashshoq yoki ba‘zilar jirkanadigan insonlarni tasvirlashda ishlatilgan. [2]

1833-yilda Dikpens o‘zining birinchi hikoyasini “A dinner at Poplar walk” (Poplar sayohatidagi tushlik) ni Londondagi oylik jurnalda chop ettiradi. 1836-yilda esa birinchi to‘plami

“Sketches by Boz” (Bozning chizgilari)ni chop ettiradi. “Boz” uning oilaviy taxallusi edi.[3] Dikkensning adabiyot sohasidagi muvaffaqiyati 1836-yilda “Pickwick klubi maktublari”ni (Pickwick papers) chop etish bilan boshlandi. Shundan so‘ng Dikkensning ham yozuvchilik kasbida, ham jamiyatda mavqei ko‘tarila boshlaydi. Muharrirlardan biri John Sutherland bu asarni “Viktoriya davrining eng muhim yagona romani” deb atagan .[4] Dikkens o‘z asarlarini har kim o‘qiy olishi uchun ularni arzon muqovalarda ham chop ettirgan. Shuning uchun uning asarlarini qirolicha Viktoriyadan tortib ko‘chadagi daydi kambag‘allarga qadar o‘qishga qurbi yetgan va shu sababdan uning asarlari keng miqyosda tarqalgan. Keyingi mashhurlikka yetaklagan asari “Oliver Twist” 1838-yilda chop etilgan va bu asar “Viktoriya davridagi bosh qahramoni yosh bola bo‘lgan birinchi roman” bo‘lib tarixga kirgan.

Yozuvchi Oliver Twist romanida Londonning jinoiy jamiyatini oddiygina qilib tasvirlaydi. Bu jamiyat poytaxt hayotining ajralmas qismi deb hisoblangan. Yozuvchi o‘quvchiga bolalarning ruhi jinoyatlarga moyil emasligi haqidagi asosiy fikrni yetkazishga harakat qiladi va buni uddalaydi. Chunki bolalar ma‘naviy poklikni aks ettiradi, deb hisoblaydi muallif. Ular shunchaki zamon va jamiyatning qurbonlari edi. “Oliver Twist”ning asosiy qismi shu g‘oyaga bag‘ishlangan.

Dikkensning eng qisqa romanlaridan biri bo‘lgan “Hard Times” nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki falsafiy, ta‘lim va sanoatga oid ko‘plab muammolarni ham yoritib beradi. Bu asarda yozuvchi qahramonlarni ikki xil qarama-qarshi yondashuv asosida tasvirlaydi, ya‘ni dunyoni o‘z ko‘zi bilan ko‘rib tushunadigan shaxslar va dunyoni tasavvuri orqali idrok etadiganlar. Yuqori sinf vakillarini birinchi turkumga, ishchilarni esa ikkinchisiga kiritadi. Asar qahramonlaridan materializmning yorqin namoyandasi sifatida zavod xo‘jayini janob Baunderbay va faqat faktlarga, nazariyalarga asoslanib ish ko‘radigan utilitar janob Gredgraynd hamda ularga qarama-qarshi ravishda sirkchining qizi xayolparast Sissi Jup keltiriladi. Gredgraynd va Bunderbay obrazlari orqali muallif industrial kapitalizmi qoralaydi. Bu tuzumda ishchilarga nisbatan rahbarlarning xudbinligi va ishchilarning achinarli sharoitlari tabiiy holat sifatida qaratiladi. Hattoki, ishchilarga nisbatan “Hands” deb murojaat qilishadi va ular qat‘iy kun tartibi hamda kuchli nazoratga muhtojligi aytib o‘tiladi. Moddiy jihatdan tashqari din orqali ham ishchilarga ta‘sir o‘tkazmoqchi bo‘lishadi. Ularning fikricha, ishchilarning barchasi yakshanba kunlari cherkovga borishi kerak. Shu maqsadda parlamentda quyi palata tomonidan ishchilarni yoppasiga majburan cherkovga jalb qilish bo‘yicha qonun loyihasi ham taklif qilishadi, ya‘ni ular din orqali ham ishchilarni nazoratda ushlab turishga harakat qilishadi.

Dikkens satiradan foydalanib jamiyat illatlarini mohirona fosh etadi. Buni Sissining o‘qituvchiga bergan quyidagi javobida ko‘rish mumkin :

- “Mana tasavvur qil, bu sinf xonasi - bir millat. Endi bu millatda 50 million pul bor. 20-raqamli qiz, aytchi, bu gullab yashnayotgan millatmi yoki og‘ir ahvoldagimi ?

- Men o‘ylashimcha, men toki o‘sha pul kimning qo‘lida ekanini bilmagunimcha aniq aytolmayman.”

Mana shu bir jumla orqali Dikkens jamiyatda boylikning noto‘g‘ri, adolatsiz taqsimlanganiga ishora qilib o‘tadi. Yana bir e‘tiborli jihati o‘qituvchi Sissiga ismi bilan emas, raqami bilan murojaat qilyapti. Chunki u qat‘iy hisob-kitoblarga, faktlarga asoslangan Gredgraynd maktabida o‘qiydi. Ular uchun o‘quvchilar ham bir inson emas, balki ma‘lum bir raqamdagi obyektlardir. Ishchilarning nazorati ularning bolalarining maktabidagi nazorati bilan davom ettiriladi. Bu orqali Dikkens siyosat va ta‘limga oid ideologiyalarning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. Dikkens bu maktab orqali o‘sha davrdagi ta‘lim tizimini ham tanqid qiladi. Ta‘lim faqat faktlarni yodlash va aytib berishga asoslanib, bolalarni tasavvur, tafakkur qilishlariga umuman imkon berilmaydi. Dikkens uchun tasavvur qilish insoniyatning eng muhim jihati hisoblangan.

Butun dunyo kitobxonlari uni yozuvchi sifatida tanisa, o‘z millatdoshlari uni “ijtimoiy tanqidchi” sifatida ham bilishadi.[5] Chunki u hayoti davomida publitistik maqolalar yozib, oddiy odamlarni himoya qilar, yuqori qatlamdagidalarni adolatsizliklari uchun qoralardi. Shuningdek u jamoat ishlarida ham faol bo‘lgan, ya’ni u mamlakatida xalq kutubxonasi tashkil qilgan, kasalxonalarga borib, bemor bolalarga yordam bergan. Shuning uchun inglizlar uni nafaqat yozuvchi, balki o‘zlarining rahnamolari sifatida sevib hurmat qilishadi.

Xulosa qilib aytganda Dikkins nafaqat Angliya yoki Amerika, balki butun dunyodagi kitobxonlarning eng ko‘p mehrini qozona olgan yozuvchidir. Amerikaliklar ham uni o‘zlarining yozuvchilari hisoblab ardoqlashadi. Chunki uning kitoblari shunchaki o‘qilmadi, balki butun dunyodagi jamiyatlar o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Oliver Twist Angliyadagi “Zavod qonunlari” (Factory Acts) va shu kabi bolalarni xo‘rlaydigan qonunlarni o‘zgartirilishiga sabab bo‘ldi. Nikolas Niklbi esa qarovsiz bolalar jo‘natilib azob beriladigan shafqatsiz Yorkshayr maktablarini yopilishiga turtki bo‘ldi. Kristmas qo‘shig‘i (Christmas carol) esa butun dunyo bo‘ylab saxovat, xayr, ehson timsoliga aylandi. Ushbu asarini Dikkins Manchester ko‘chalaridagi qashshoqlikka guvoh bo‘lgandan so‘ng yozadi va bu o‘sha paytda har bir kitobxonni jamiyatni qanday qilib o‘zgartirish mumkinligini o‘ylashga majbur qilgan. Bu asar odamlarni Kristmas an‘analarini qayta tiklashga undagan. Bu asar orqali Dikkins insonlarni saxiy bo‘lishga, hech bo‘lmasa shu bayramda kambag‘al oilalarning bolalariga quvonch ulashishga chorlaydi. “Kristmas qo‘shig‘i” asari 1843-yilgacha chop etilmagan va o‘sha yildan beri hozirgacha bu asar butun dunyo bo‘ylab namoyish etiladi. O‘sha yilning o‘zida bu asar Mumbaida musiqali tarzda kuylab berildi. Londondagi Gayd Parkda amerikalik aktyorlar tomonidan o‘qib berildi va Chikagoda hip-hop janrida qo‘shiq qilib kuylandi. Xullas Dikkins butun dunyoning sevimli yozuvchisiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wilson Angus (1972) The World of Charles Dickens. Penguin books. P61
2. Oxford Dictionary-Dickensian. Wayback Machine. Oxford University press. 2014
3. Glancy Ruth (1999) Student companion to Charles Dickens. Westport, Connecticut:Greenwood publishing company.2015 page6
4. Sutherland John. The Pickwick phenomenon. Cambridge University Press.2021
5. Flint Cate. Marlon James and Charles Dickens:Embrace the art, not the racist artist. The economist. October 2015.